



## O‘ZBEK ADABIYOTIDA BALLADA JANRINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Quvonch Mamiraliyev,

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

[mamiraliyevquvonchbek@gmail.com](mailto:mamiraliyevquvonchbek@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206956>

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida ballada janrining o‘rni va ahamiyati, janrning kelib chiqishi kabi masalalar o‘rganilgan. Shuningdek, ballada janrining o‘zbek she‘riyatida qanday o‘zgarishlarga uchragani tahlil qilingan. Bunda Usmon Azim va Xurshid Davron ijodidagi ballada janrining ahamiyati ko‘rsatilgan.

*Kalit so‘zlar:* ballada, janr, she‘riyat, sonet, g‘arbona janr, qahramonlik xarakteri, modifikatsiya.

O‘zbek adabiyotida g‘arb adabiyotidan o‘zlashgan janrlar talaygina. Masalan, sonet, rondo (rondel), ballada, xokku, tanka, elegiya kabi ko‘plab janrlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ayniqsa, o‘zbek she‘riyatida sonet va ballada janri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ko‘plab o‘zbek shoirlari sonet va ballada qator ijod namunalari yaratishgan.

Ballada janri haqida adabiyotshunos olim Murod Ibrohimovning “O‘zbek ballada: janrning kelib chiqishi va xususiyatlari” mavzusidagi monografiyasida batafsil ma‘lumot berilgan. Bundan tashqari, ko‘plab jahon adabiyotshunosligidagi nazariy asarlarda ham ballada janriga turli ta‘riflar berilgan. L.Timofeyevning N.V.Vengrov bilan hamkorlikda yozgan kitobida balladaga quyidagicha ta‘rif beriladi: “Rus poeziyasida qahramonlik xarakteridagi qandaydir alohida hayotiy epizodni aks ettiruvchi kichik syujetli she‘rga ballada deyiladi” [3;367]. Ba‘zi adabiyotshunoslar esa balladaning ritmi va sujetiga e‘tibor berishadi. Rus adabiyotshunosligida ballada “qahramonlik xarakteridagi” janr sifatida qaralgan. Bu qarash ballada janriga nisbatan o‘sha davr o‘zbek adabiyotshunosligida ham bevosita mavjud bo‘lgan. Mazkur janr epik tur belgilari mavjud bo‘lgan lirik turga mansub janr. Ko‘p hollarda liro-epik tur janri sifatida ham baholanadi.

Adabiyotshunos M.Ibrohimov ballada so‘zining kelib chiqishi yuzasidan ko‘plab olimlarning fikrini keltirib o‘tadi va Shishmarevning “Eski fransuz tili lug‘ati” kitobidagi ballada so‘zining etimologiyasini keltirib o‘tadi hamda uni haqiqatga ancha yaqinligini ta‘kidlaydi: “Balare termini V–VI asrlarda vujudga kelgan grekcha so‘z ekan. Xullas, grekcha *balare* so‘zidan fransuz tilidagi *baler* so‘zi



kelib chiqqan. Bu soʻzdan esa *bal* soʻzi yasalgan. *Bal* feʻli esa koʻpgina xalq; tillarida bir necha yagi soʻzlarning, shu jumladan, italyan tilidagi *ballala*, fransuz tilidagi *ballade*, ingliz tilidagi *ballad*, rus va boqa tillardagi *ballada* terminlarining yasalishi uchun asos — negiz vazifasini oʻtagan”. [1;18]

Ballada janri dastlab folklorida paydo boʻlgan. Angliya folklorida hozir 300 dan ortiq ballada syujeti saqlanib qolganligi hakida maʼlumotlar bor. Bu syujetlarning har xil variantlari boʻlib, yozib olingan ingliz balladalarining umumiy soni mingdan ham oshadi. Ushbu janrda musiqa, raqs va soʻzlar uygʻunligi taʼminlangan. Keyinchalik esa, raqs chiqib ketgan. Simvol va allegoriya ballada janr xususiyatlari uchun muhim hisoblangan. D.Quronov va boshqalar hamkorligida tuzilgan “Adabiyotshunoslik lugʻati”da ballada janriga shunday taʼrif berilgan: “Ballada (fr. ballade - raqs bop qoʻshiq) - 1) oʻrta asrlar fransuz adabiyotidagi qatʼiy sheʼriy shakl, bir xil qofiyalanish tartibidagi (ababbcbc) har biri sakkiz misradan tashkil topgan uchta band, bandning oxirgi misrasi tarjeʼ sifatida takrorlanadigan, oʻquvchiga murojaat qilingan yarim band (toʻrt misralik - bcbc) bilan yakunlanuvchi sheʼr; 2) keyingi davrlar Yevropa adabiyotlarida keng tarqalgan ballada ingliz-shotland xalq sheʼriyatidan kelib chiqadi. Agar fransuz balladasi qatʼiy sheʼriy shakl boʻlsa, ingliz balladasida shakliy talablar ancha erkin (qofiyalanish tartibi qatʼiy emas, tarjeʼning boʻlishi shart qilinmaydi), u bir xil, odatda, toʻrt misrali bandlardan tashkil topadi. Ingliz balladasining belgilovchi xususiyatlari sifatida tarixiy, tarixiy-afsonaviy, baʼzan esa maishiy mavzuda yozilishi, kichik voqeaband syujet asosiga qurilgan epik xarakterdagi sheʼriy asarligini koʻrsatish mumkin. Xuddi shu xususiyatlar yozma adabiyotdagi balladalarga ham xosdir. Urush yillarida yozilgan M.Shayxzodaning “Kapitan Gastello”, H.Olimjonning “Jangchi Tursun” kabi asarlari balladaning oʻzbek adabiyotidagi yaxshi namunalari sanaladi”. [2;52]

Demak, ilk xalq balladalarining janr xususiyatlaridan biri ularning musiqa va raqs bilan bogʻlanganligidir. Shunga koʻra, har bir xalqning ogʻzaki ijodiyotida ballada janrining kelib chiqish davrini belgilashda, oʻsha xalqda poeziya, musiqa va raqs sanʼatining kelib chiqish davriga eʼtibor berish lozim. Oʻzbek xalq qoʻshiqlarining “yor-yor”, “oʻlan” va “lapar” kabi turlari shakli, aytiladigan payti, joyi, ijro etilishi jihatidan xalq balladalariga oʻxshashligi bor.

“Ballada” termini “raqsbop qoʻshiq” degan maʼnoni anglatadi. Oʻrta asrlar Yevropa adabiyotida paydo boʻlganligi aytiladi, kelib chiqishiga koʻra rivoyat va hikoyatlarga borib taqaladi. Ertak va qoʻshiq janrining ham baʼzi jihatlarini mujassamlashtirgan. Balladalarda tarixiy va hayotiy syujet yorqin aks etadi.



Ko‘pincha mifologik mavzuga murojaat qilinadi, afsonaviy qahramonlar qatnashadi. Ballada sentimentalizm va romantizmning muhim janrlaridan hisoblanadi.

Ballada dramatik, tragik, qahramona voqea-hodisakarni romantik metod asosida, ko‘tarinki uslubda aks ettiruvchi poetik janr. Ballada o‘zbek adabiyotiga 20-30-yillarda kirib keldi. O‘zbek adabiyotida XX asrning 30-40-yillarida ballada ko‘proq qahramonona voqealarni tasvirlashga bag‘ishlangan. (H.Olimjonning “Jangchi Tursun”, “Roksananing ko‘zyoshlari”, Maqsud Shayxzodaning “Kapitan Gastello”kabi).

80-90-yillar va mustaqillik davri adabiyotida balladalar mazmunan o‘zgarib ketdi. Masalan, U.Azim, X.Davron, M.Yusuf, T.Jo‘ra kabi shoirlar ballada deb taqdim etgan asarlar ballada talablarining birortasiga javob bermaydi. Janr sifatida faqat nomi qoldi xolos.

Adabiyotshunos olim Erkin Xudoyberdiyevning “Adabiyotshunoslikka kirish” asarida esa ballada epik turga mansub janrlar sirasida sanaladi: “Jumladan, epik tasvir epopeyada ham, masal, ballada, poemada ham, ocherk, hikoya, povest, romanda ham, badiiy memuarlarda ham qo‘llanib kelinadi” [4;189]. Ta’rifdan ko‘rinadiki, balladalarining syujetga ega bo‘lishi ularning epik xarakterini yuzaga keltiradi. Lekin biz Usmon Azim va Xurshid Davron ijodidagi balladalarini tahlil etar ekanmiz, ushbu janrga mansub she’riy namunalarni ustuvorlik belgisiga ko‘ra lirik turga kiritgan holda ularda ifodalangan epiklik xususiyatlari, ya’ni syujetga ega bo‘lishi, qahramonlarning ishtirok etishi, ba’zan dialogik nutqlarning ifodalanishi kabi belgilari tahlil etilishi maqsadga muvofiq degan fikrdamiz. Lirikaning ushbu janri har ikkala shoirda ham ko‘plab uchrovchi yetakchi janrlardandir. Usmon Azimning turli yillardagi she’riy to‘plamiga kiritilgan “Buyumlar haqida ballada”, “Yigirmanchi yillar balladasi”, “Elliginchi yillar balladasi”, “Eng so‘nggi ohu haqida ballada”, “Dasht haqida ballada”, “Boysun haqida g‘amgin ballada”, “Sevgi hakida umidbaxsh ballada”, “Qush haqida ballada”, “Ilk she’rning yozilishi haqida ballada”, “Bulbulga aylangan odam haqida ballada”, “Deraza haqida ballada”, “Nodramatik ballada yoki beg‘am marsh”, “Armon haqida ballada”, “Chiroqlar haqida ballada”, “Uch dramatik ballada” kabi she’rlari shular jumlasidandir.

Biz Xurshid Davron ijodiga nazar tashlaganda, miqdor jihatidan u qadar ko‘p bo‘lmasa-da, uning ijodida ham ballada o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan janrlardan ekanligining guvohi bo‘lamiz. Shoirning turli she’riy to‘plamlaridan o‘rin olgan “Frontovik haqida ballada”; “Ballada II”, “Ona tili haqida ballada”; “Ballada”,



“Sotqin haqida ballada”; “Xanjar haqida ballada”, “Qamal, non, aka-ukalar haqida ballada” kabi asarlar uning ijodidagi balladalarga misol bo‘la oladi.

Ikki ijodkor balladalarining asosiy farqi shuki, Usmon Azim balladalarida kuchli lirizmni ko‘rish mumkin. Epic xarakterlik, qisqa voqeabandlik ko‘rinmaydi.

Usmon Azim balladalaridagi tabiat tasviri betakrorligi bilan e‘tiborga molik. “Deraza haqida ballada”siga quloq tutaylik.

Kuzakning besohib kechalarida

Izg‘irinlar yelar, yomg‘irlar ezar...

Dunyoning ho‘l, zulmat ko‘chalarida,

Tentirab kezinar yolg‘iz deraza.

Oynasida o‘ynar chiroqning aksi,

Qayiq surati bor pardalarida.

Tentirar deraza – xazonlar bosib,

Beparvo kuzakning zardalariga. [6;98]

Tadqiqotchi Madina Bolliyeva Usmon Azim balladalarini haqida fikr yuritarkan, ularni “G‘arbona janrning sharqona namunasi” deb nomlaydi.

Xurshid Davron balladalarini tahlilida epik tasvirlarda lirik kechinmalar ifodasiga e‘tibor qaratish lozim. Shuningdek, shoirning ushbu janrda tasvirlagan voqealari ham ko‘pincha tarixiylik bilan ajralib turadi. Masalan, shoirning “Ona tili haqida ballada” she‘rini ikki qismga bo‘lib tahlil etish mumkin. She‘rning ikkiliklar tarzida kelib, mumtoz masnaviylar kabi a-a b-b s-s... tarzida qofiyalanishi unda voqea tasvirini ifodalash uchun qulay shakl ekanligi manbalarda ham keltirilgan:

— Nima istar bizdan bu odamlar, ayt,

Ota, ular bilan borma... ota... o-ta-a, qayt.

Nega, ayt, otamning ko‘kraklari qon,

Nega, ayt qo‘lingda kishan, onajon?!

Balladalarini tahlil qilish jarayonida, Usmon Azim balladalarini ballada janri rivojiga ulkan hissa qo‘shibgina qolmay, inson ichki kechinmalarini jumbushga keltiruvchi, chuqur lirik kechinmalarni boshdan o‘tkazuvchi asarlardir degan xulosaga kelindi. She‘riyatda ballada janrining paydo bo‘lishi, janrning tarixiy kategoriyasi, janr shakllanishi, genezisi masalasi, jahon she‘riyatida ballada janrini belgilovchi omillar, o‘zbek she‘riyatida ballada janrining o‘rni va ahamiyati, janrining paydo bo‘lishi kabi masalalar tahlil qilindi. O‘zbek she‘riyatida ballada

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



janrining shakllanishi, janrning o‘zgarishlarga uchrashi, Usmon Azim ijodida ballada janrining kengayishi va o‘zgarishlarga yuz tutgani, janrning shakl va mazmun jihatidan uyg‘unlik kasb etganligi ko‘rsatib berildi.

O‘zbek adabiyotiga G‘arb she‘riyati orqali kirib kelgan janrlardan biri bo‘lgan balladaning o‘ziga xos xususiyatlari, balladada lirik va epic tur belgilarining qorishiq holatda kelishi va shu sababli mazkur janrni liro-epik tur namunasi sifatida belgilash nazariy jihatdan maqsadga muvofiq ekanligi bayon qilindi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murod Ibrohimov. O‘zbek ballada: janrning kelib chiqishi va xususiyatlari. -Toshkent: Fan, 1974. -B. 18.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Академнашр, 2010. – Б. 52.
3. Л.И.Тимофеев. Основы теории литературы, М., Изд-во “Просвещение”, 1966. -стр. 367.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – 475 b.
5. Хамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи. – Toshkent: Янги аср авлоди, 2002. – 156 б.
6. U.Azim. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 1995. –432 b.
7. Q.Mamiraliyev. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotida janrlar modifikatsiya. -Toshkent: Anorbooks, 2024. -208 b.